# Oʻzbekiston Respublikasi ijtimoiy sohasining roli, ahamiyati va tartibga solish mexanizmlari

2018 yil 11 may kuni soat 18:00 da “Iqtisodiyot va menejment” fakultetiga biriktirilgan 3-TTJda 2018 yil 30 aprel TIQXMMI rektorat a’zolari yigʻilishining 2017-2018 oʻquv yilidagi 34-majlis bayoni 7-bandida belgilangan “Iqtisodiyot va menejment” fakulteti professor-oʻqituvchilari jamoasi (har juma) TTJda turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar olib borilishi samaradorligini vazifalari ijrosi yuzasidan “Iqtisodiyot” kafedrasi mudiri U.Sangirova, fakultet ma’naviy-ma’rifiy ishlar boʻyicha dekan oʻrinbosari J.Turdiev va kafedra professor-oʻqituvchilari hamda 20 nafar talabalar ishtirokida “Oʻzbekiston Respublikasi ijtimoiy sohasining roli, ahamiyati va tartibga solish mexanizmlari” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir oʻtkazildi. Tadbirda 2017-2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar Strategiyasini amalga oshirish doirasida qabul qilingan 20 dan ortiq qonunlar, 180 dan ortiq farmonlari va 450 ortiq qarorlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlarning soʻzsiz, oʻz vaqtida va sifatli ijro etilishini ta’minlash hozirgi bosqichda koʻzlangan maqsadlarga erishishining muhim sharti ekanligi ta’kidlandi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi ijtimoiy sohasining roli, ahamiyati va tartibga solish mexanizmlariga oid ma’lumotlar bilan “Iqtisodiyot” kafedrasi mudirasi Sangirova Umida Ravshanovna soʻzga chiqdi va talabalarga mamlakatimizda hozirgi kunda olib ijtimoiy sohada borilayotgan ijobiy oʻzgarishlar va yutuqlar haqida qisqacha gapirib oʻtdi.

Shundan soʻng talabalarga “Iqtisodiyot (suv xoʻjaligida)” kafedrasining katta oʻqituvchisi Sh.Murodovning “Oʻzbekiston Respublikasi ijtimoiy sohasining roli, ahamiyati va tartibga solish mexanizmlariga” mavzusida tayyorlangan prezentatsiyasi namoyish etildi. Tadbir qizgʻin savol-javoblar asosida boʻlib oʻtdi.

**“I va M” fakulteti dekani oʻrinbosari J.Turdiyev**